


NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2023- YIL YANVAR-OKTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 79-223-33-29
www.navstat.uz

Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalaridan 81 905,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Hajmi, mlrd. so'm



yanvar-oktabr mlrd. so'mda



FHI, % da





yanvar-oktabr FHI, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 329,0 mlrd soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 12,6 % ga toʻgʻri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan – bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66 134,3 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,7 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2022- yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,7 % (10,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 83,1 % (82,2 %) va quyi texnologiyalisi – 7,0 % (6,7 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

2023- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 6 428,6 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar (2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 120,5 % ga o'sgan), 2 157,5 tonna xlor (138,3 %), 39,8 ming t Vodorod xlorid (xlorid kislotasi) (116,2 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna.	68,0	78,0	10,0
Yogurt, tonna.	15,0	18,0	3,0
Xlor, tonna.	1 560,0	2 157,5	597,5
Argon, ming m ³ .	102,6	224,0	121,4
Kislorod, ming m ³ .	140,4	136,4	-4,0
Natriy sianidlari va sianidoksidlari, ming t.	40,8	41,5	0,7
Ammoniy sulfat, ming t azot.	2,9	3,2	0,3
Vodorod xlorid (xlorid kislotasi), ming t.	34,2	39,8	5,6
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming t.	52,1	47,7	-4,4
Portlandsement, ming tonna.	2 664,1	2 461,6	-202,5
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	5 333,3	6 428,6	1 095,3


* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Argon ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Argon – rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lanadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlatiladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.

Viloyatimizda 2023- yil yanvar-oktabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 224,0 ming m³ argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 m. ga ko'paydi.




Vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Vodorod xlorid – xlorning eng muhim birikmalaridan biri bo'lib o'tkir hidli rangsiz gaz. U bilan nafas olinganida nafas yo'llarini yallig'lantiradi va bo'g'adi.

Viloyatimizda 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 39,8 ming tonna vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,2 % ni tashkil etgan.





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Azot ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Azot – rangsiz, hidsiz gaz bo‘lib havoda erkin holda uchraydi va sanoatda suyultirilgan havoni parchalab olinadi.


2023- yilning yanvar-oktabr oylarida jami 88,8 ming m³ azot ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 17,5 % ni tashkil etdi.



Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-oktabr oylarida)

Plastmassa quvurlar – asosan, suv bilan ta‘minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo‘llanadi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 6 428,6 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 20,5 % ga ko‘paygan.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 75,5 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 49 910,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo‘lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o‘z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o‘z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,7 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 75,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 478,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 981,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 95,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 895,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,2 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,1 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 431,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-oktabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,0 % ga ko'payib va ishlab chiqarish hajmi 1 012,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 388,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,6 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlarini

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 90,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 98,3 % ni tashkil etdi hamda elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 3,6 m. ga ko'paygan.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	9 502,0	8 595,8	-906,2
Issiqlik energiyasi, ming. gkal	3 715,8	3 651,9	- 63,9
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	515,0	1 854,9	1 339,9

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54,2 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 3,3 (m) ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 1,9 % ga oshdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-oktabr	2023- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	60 063,3	44 414,3	- 15 649,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	119 467,5	121 680,2	2 212,7
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	13 477,5	44 444,9	30 967,4

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 3 142,7 mlrd.so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,3 %, uning jami sanoatdagi ulushi 3,8 % ga to'g'ri keldi.


2023- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 1 699,7 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 8,5 % ga oshdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Karmana tumani (123,6 %), Xatirchi tumani (112,4 %) hamda Uchquduq (106,7 %) tumani korxonalari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 54,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 45,9 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 41,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 59,0 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 108,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 101,8 % ga to'g'ri keldi.


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

yanvar-oktabr mlrd.so'mda




yanvar-oktabr o'sish sur'ati, % da





Nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

yanvar-oktabr mlrd. so'm




Oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

yanvar-oktabr mlrd. so'm




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-oktabr o'sish sur'ati, % da



yanvar-oktabr o'sish sur'ati, % da

